

DEZADAPTATSIYALASHGAN O‘SMIRLARNI KORREKSIYA QILISHNING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Xolmo‘minov Fazliddin Toshnazarovich

Boysun tumani 46-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dezadaptatsiyalashgan o‘smirlarning psixologik xususiyatlari, ularning jamiyatga moslasha olmaslik sabablari hamda ularni korreksiya qilishning ijtimoiy-psixologik usullari yoritilgan. Shuningdek, oila, maktab va psixologning bu jarayondagi o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: dezadaptatsiya, o‘smir, psixologik muammo, moslashuv, ijtimoiy muhit, korreksiya, stress, tarbiya, muloqot, psixologik yordam

KIRISH

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsda turli psixologik va ijtimoiy o‘zgarishlar yuzaga keladi. Ayrim hollarda o‘smirlar atrof-muhitga moslasha olmaydi, bu esa dezadaptatsiya holatini keltirib chiqaradi. Dezadaptatsiya — bu shaxsning ijtimoiy muhitga moslashishda qiyinchilikka duch kelishi bilan bog‘liq psixologik holatdir.

Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlar odatda o‘zini jamoadan ajratilgan his qiladi, tengdoshlari bilan muloqotda muammolarga duch keladi, o‘qishga bo‘lgan qiziqishi pasayadi. Ularning xulq-atvorida agressivlik, befarqlik yoki aksincha, tortinchoqlik kuzatilishi mumkin.

Bunday holatlarning kelib chiqishiga bir qator omillar sabab bo‘ladi. Eng avvalo, oiladagi muammolar, ota-onaning e‘tiborsizligi yoki ortiqcha nazorati o‘smir ruhiyatiga salbiy ta‘sir qiladi. Shuningdek, maktabdagi muvaffaqiyatsizliklar, o‘qituvchilar bilan kelishmovchiliklar va tengdoshlar bilan munosabatlarning yomonligi ham dezadaptatsiyaga olib keladi.

Dezadaptatsiyalashgan o‘smirlar bilan ishlashda psixologik korreksiya muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda o‘smirning ichki dunyosini tushunish, uning muammolarini aniqlash va unga mos yondashuvni tanlash zarur.

Eng muhim usullardan biri — bu individual suhbatlardir. O‘smir bilan ochiq va samimiy muloqot qilish orqali uning ichki kechinmalarini bilish mumkin. Bu esa unga yordam berishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, guruhli mashg‘ulotlar ham samarali hisoblanadi. Bu orqali o‘smirlar tengdoshlari bilan muloqot qilishni, o‘z fikrini erkin ifoda etishni o‘rganadi. Guruhda ishlash ularning ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Psixologik treninglar orqali o‘smirlarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish, stressga bardoshlilikni rivojlantirish va salbiy hissiyotlarni boshqarishni o‘rgatish

mumkin. Bu esa ularning moslashuv jarayonini osonlashtiradi.

Oila bilan ishlash ham juda muhimdir. Ota-onalar farzandiga nisbatan mehribon, tushunuvchan va sabrli bo'lishi kerak. Ular bolani tinglashi, uning muammolariga befarq bo'lmasligi zarur.

Maktab muhitini yaxshilash ham dezadaptatsiyani kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchilar o'quvchilarga individual yondashishi, ularni qo'llab-quvvatlashi va rag'batlantirishi kerak.

Shuningdek, o'smirni foydali faoliyatlarga jalb qilish muhim hisoblanadi. Sport, san'at va turli to'garaklar uning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishga yordam beradi va ijobiy muhit yaratadi.

Dezadaptatsiyalashgan o'smirlar bilan ishlashda sabr, tushunish va izchillik muhimdir. Tez natija kutish o'rniga, bosqichma-bosqich yondashuv samaraliroq hisoblanadi.

Ma'lumki, dezadaptatsiyalashgan o'smirlar bilan ishlash jarayoni har bir o'smirning ta'lim samaradorligiga u yoki bu darajada ta'sir etuvchi shaxslilik xususiyatlarini o'rganish va tadqiq qilish bilan bevosita bog'liqdir. Zero, ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining asosiy qatnashchilari o'quvchilar va o'qituvchilardir.

Bugungi kunda ta'lim muassasalari – o'zgarib borayotgan uzluksiz ta'lim tizimining eng dinamik jabhasi hisoblanadi. Mazmuniy va tashkiliy ma'noda u o'quvchining individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish imkoniyati hisoblanib u o'z ichiga ehtimolli-zaruriy va shu bilan birga shartli-zaruriy bilim va malakalarni qamrab oladi.

Tadqiqotimizda asosan o'smirlar ishtirok etishdi (100 nafar). Ulardan 70 nafari o'g'il bolalar, 30 nafari qizlardir. Tekshiriluvchilarning o'rtacha yoshi 15 yoshni tashkil etdi. Tanlangan guruhga o'qishi va xulq-atvorida qiyinchiliklarga duch kelayotgan o'smirlar kiritildi. O'quvchilarning aksariyat qismi – noto'liq oilalardan. Ularning ko'pchiligini ota-onalari doimiy ishga ega emas. O'smirlarning ko'p qismi "xavfli guruh" deb atalmish guruhga kiradi. Mazkur o'smirlarda aksariyat hollarda shaxslilik dezadaptatsiyasiga nisbatan moyillik mavjud. O'quvchilarning aksariyati nisbatan pedagogik va ijtimoiy qoloqlikka ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Dezadaptatsiyalashganlik quyidagi mezonlar asosida tahlil qilinadi:

- o'zini o'zi qabul qilishning past darajasi;
- boshqalarni qabul qilishning past darajasi,
- tabiatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin bo'lgan emotsionallikning namoyon etilishi;
- boshqalarga bog'liqlik, ya'ni eksternallik; - ustunlikka intilish.

Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik so'rovnomasi natijalarini qayta ishlashda umumta'lim maktablarining o'quvchilari o'rtasida dezadaptatsiya belgilarining

mavjudligini tasdiqlovchi ma'lumotlar olindi. Faollik ko'rsatkichining pasayishi tadqiqotda ishtirok etgan o'smirlarning deyarli barchasida kuzatildi.

Maktab o'quvchilarining yuqoridagi xususiyatlarini o'rganishimiz natijasida olingan ma'lumotlar boshqa tadqiqotchilarning ma'lumotlarini ham tasdiqladi.

Dezadaptatsiyalashgan o'smirlardagi ijtimoiy-psixologik mavqe xususiyatlarini va ularning o'z kelajaklarini prognozlashtirishlarini tahlil qilish natijasida biz hozirgi mavqe bilan kelajakdagi hayotiy istiqbollar o'rtasidagi nomutanosiblikni ham aniqladik. O'smirlar hozirgi vaqtda o'zlarining hech narsaga qodir emasliklarini qayd etib, bu holatning kelajakda ham o'zgarishi mumkinligini ko'rmaydilar va o'qish bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizliklardan o'qishdan bosh tortish (uning kerakmasligini bahona qilib), ishlashni istamaslik, xulq-atvorning deviant shakllariga o'tib ketish kabi holatlardan qochishga intiladilar.

Bizning tadqiqotlarimiz natijalari o'smirlar va ota-onalarning "bola-ota-ona" diadasidagi o'zaro munosabatlari haqidagi tasavvurlarining bir-biriga mos kelmasligini ko'rsatdi. Ota-onalarning fikricha, ularda bolalari bilan emotsional maqbul munosabatlar shakllangan va ular bolalari bilan teng o'zaro munosabatlarga kirishishga qodirlar, holbuki, o'smirlarning fikricha esa, bu munosabatlar begonalashish va befarqlikka asoslangan. Ko'rinib turibdiki, o'smirlar birinchi o'ringa ota-onalari bilan munosabatlarda avtonomlikni qo'yadilar. Ota-onalar esa o'smirlarga shaxsiy va ijtimoiy etuklikni uyg'unlashtirishga intiladilar. Ular o'smirlarni muvaffaqiyatsiz, nomustaqil va no'noq deb hisoblab ularga ishonmaydilar, lekin bir vaqtning o'zida ularni qiyinchiliklardan chegaralashga va ularning xatti-harakatlarini nazorat qilishga harakat qiladilar. O'smirlarning fikricha ota-onalar ularni qabul qilish o'rniga ko'pincha inkor etadilar. Avvalo xulq-atvor shakllarida namoyon bo'ladigan mustaqillikka intilib, maktabning zamonaviy o'quvchisi ich-ichidan ota-onasi tomonidan qo'llab-quvvatlashning zarurligini his etadi, uning yo'qligi esa o'smirdagi shaxslilik bezovtalanishini orttirib yuboruvchi stressor hisoblanadi. Binobarin, mazkur tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan o'smirlarda o'tkazilgan so'rov natijalari ota-onalar bilan oilaviy o'zaro munosabatlar rivojlanishidagi quyidagi tendensiyalarni qayd etish imkoniyatini beradi. Avvalambor ota-onasi tomonidan o'ziga befarq munosabatni his etib o'smirlar oilada befarq va rasmiy o'zaro munosabatlar tajribasini o'zlashtiradilar. Bu esa kelajakda o'z baxtli oilaviy hayotlarini qurish borasidagi o'ziga ishonmaslik va bezovtalanishga olib kelishi extimol. O'smirlar qayd etgan ota-onalar tomonidan tarbiyaviy ta'sirning nomutanosibliigi ularda bezovtalanishning yuqori darajasi, o'zga ishonmaslik atrof muhitning doimiyligini his etishning mavjud bo'lmasligiga olib keladi. Bu o'smirlarda mas'uliyat hissining etarlicha shakllanmasligiga olib kelishi ehtimol, chunki ularga mustaqillik berilishiga qaramasdan (yuqori avtonomlik, past darajadagi direktivlik), o'smirlar qattiq va temir intizom qoidalari etarli me'yorda his qilmaydilar, o'z

navbatida qoidabuzarlikdan keyingi e'tirozlarni ham etarlicha qabul qilmaydilar. Bularning barchasi bo'layotgan voqealar uchun javobgarlikni boshqalarga yuklashda namoyon bo'ladigan eksternal xayotiy pozitsiyaning shakllanishiga olib keladi. Demak, oila turmush tarziga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida o'z ichiga bolaning shaxslilik rivojlanishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik jabhalarning keng ko'lamini o'z ichiga oladi. Ular orasida alohida o'rinni ota-onalarning shaxs xususiyatlari, ularning ustanovkalari va qadriyatlar yo'nalishi egallaydi.

Ota-onadagi tasavvurlar, qarashlar va e'tiqodlar tizimi ularning tarbiyalovchi faoliyatida aks etadi (bilimlar ko'lamini va kutilmalar darajasi, qarashlarning o'ziga xosligi va e'tiqodlari, bola rivojlanishi xususiyatlari va uni belgilovchi omillar haqidagi tasavvurlar misolida) va ularning xulq-atvorida aks etadi. Bu esa o'smir shaxsidagi u yoki bu xususiyatlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning bunday qarashlari, tasavvurlari va kutilmalari o'smirlar bilan muloqotda muhim o'rin tutadi. O'quvchilar sotsiumi uchun baholash oiladagi baholashdan keskin farq qiladi. Juda ko'p o'smirlar o'quv muassasalariga, o'quv faoliyatiga, shuningdek, o'qituvchilar ommasiga salbiy munosabatda bo'ladilar. Maktab o'quvchilari – dezadaptatsiyalashgan o'smir-larning psixik rivojlanishlari xususiyatlari va darajalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, aksariyat dezadaptatsiyaga moyil o'smirlarda xotira mahsuldorligining pastligi, mexanik eslab qolishning ustun turishi, umumlashtirishning konkret va funksional darajalari ustunlik qilishi, abstrakt fikrlashning etarlicha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadilar. Bundan tashqari past darajadagi mehnatga layoqatlilik, tez charchab qolish hollari ham bunday toifadagi o'smirlarga xosdir. Bu omillar o'quv ko'nikma va malakalarining etarli darajada shakllanmasligidagi sabablardan biridir. O'qishdagi doimiy qiyinchiliklar, muvaffaqiyatsizlik vaziyatiga tez-tez tushib qolish o'qishga bo'lgan ijobiy motivatsiyaning pasayib ketishi va mazkur o'quvchilarda o'quv faoliyatini qabul qila olmaslikka olib keladi. Albatta bunday holatlarni bartaraf etish uchun esa etarli darajadagi psixologik kompetentlik talab qilinadi.

Dezadaptatsiya sub'ekt tomonidan ijtimoiy me'yor va mezonlarga moslasha olmaslik sanaladi. Psixologik adabiyotlarda ijtimoiy psixologik dezadaptatsiyaning quyidagi turlari tasniflanadi: Psixogen dezadaptatsiya o'smirning atrofidagi ijtimoiy muhitdagi uning uchun ahamiyatli bo'lgan insonlar bilan muloqoti jaryonidagi buzilishlar natijasida kelib chiqadi. Ko'p holarda bu uning tengdoshlari bilan bo'lgan munosabtlardagi buzilishlar natijasi bo'lishi mumkin. Emotsional yaqin insonlari bilan muloqot o'smirdagi hissiy kechinmalarining shakllanishining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda o'smirning yaqin ijtimoiy muhitdagi ayrim yaqin insonlar bilan negativ kechimalari, boshqa yaqin insonlar bilan muloqotda kompensatsiya qilinadi.

O'smirlarda dezadaptatsiya holatini kelib chiqish ehtimoli uning muloqotdagi kompensatsiya jarayoni asotsial ijtimoiy muhit orqali amalga oshgan hollarda ortadi.

Lekin boshqa tomondan o'smirning tengdoshlari bilan ijobiy muloqoti undagi oiladagi, yoki maktabda o'qituvchi bilan shaxslaro munosabatlaridagi buzilishlarni kompensatsiya qilish imkonini yaratadi. Dezadaptatsiya xolatlari keltirib chiqishida o'smirlar oilaviy anamnezining og'irlashuvi: noto'liq oilalar va oiladan tashqarida tarbiyalanishlik, ko'p ichuvchi ota, ota-onalardan birining ruhiy kasalligi, oiladagi disgarmonik munosabatlar va kelishmovchiliklar, bolalikda o'smirmga ota-onaning noto'g'ri munosabati, psixopatologiya darajasining chegaraviy yoki yuqoriligi bilan farq qilishadi. Ko'p xolatlar o'smirning ijtimoiy dezadaptatsiya holatlarini bartaraf etishda oilaviy tarbiya metodlarini o'rganish, qandaydir yangiliklar olib kirish, oilaviy tadbirlarni birgalikda o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Ayrim xollarda otaonalar "Nima uchun o'qishdagi muammolarni biz hal qilishimiz kerak?", "Oilaning bu holatga qanday aloqasi bor?", "O'qituvchi bola bilan to'g'ri munosabatlarga kira olmaydimi?" mazmunidagi savollar bilan murojaat etadilar. Vaxolanki, ota – ona o'z farzandlari ruhiyatidagi ayrim qirralarni o'qituvchidan ko'ra yaxshi bilishi, o'qituvchi esa o'smir xulqidagi ota-ona payqamagan tomonlarni yaxshiroq tushunishi mumkin. Aynan shu bois ular o'rtasidagi o'smir ta'lim tarbiyasidagi pedagogik hamkorlik dezadaptatsiya jarayonini kelib chiqishini oldini olishi va bartaraf etish imkoniga egadir

O'smirlarda dezadaptatsiya holatlarini shaklanish omili sifatida quyidagilar ko'rsatishimiz mumkin: birinchidan, oilada iliq emotsional munosabatlarning yetishmasligi (hamma narsaga egasan. Senga yana nima kerak?). Ikkinchidan, o'smirlarni haddan ziyod erkalatib yuborish, istaklarini tezkor bajarishdir. Buning natijasida, arzimagan cheklashlar o'smirlarda suitsidal moyillik paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin (yoqtirgan kiyimi, ota-onasiga yoqmasligi, va'da qilingan telefonning qimmat markasidan sotib olib bermaganliklari va h.). Uchinchidan, oilada ota-onalar o'rtasidagi surunkali nizolar: otaning alkogol moddalarining iste'mol qilishi, ikkinchi nikohining bo'lishi, xonadonda o'g'il farzandning yo'qligi. o'smirning bu vaziyatlarni tuzatishga ojizligi. To'rtinchidan, ota-onalar tomonidan o'smir xulqini doimiy nazorat qilishga intilishini sabab sifatida keltirsak bo'ladi. Beshinchi omil esa, o'smir uchun ahamiyatli bo'lgan, sevgan insoni bilan munosabatlari ota-onalar tomonidan qat'iy qabul qilinmaganligi (mahallada sharmanda qilding, sen kabi farzandning boridan yo'g'i afzal qabilidagi ta'nali so'zlarning ishlatilishi). Bundan tashqari, yuqoridagi sabablarga yana bir qancha qo'shimchalar keltirish mumkin. Masalan: O'smirning muvaffaqiyatlari yoki muammolariga nisbatan oila a'zolarining befarqligi.

Dezadaptatsiya holati sog'lom, yoki turli asab psixik buzilishlari mavjud (jismoniy nuqsonli, organik buzilishlarga ega bo'lgan oligofren o'smirlar bu toifaga kirmaydi) o'smirlarda shakllanishini kiritish mumkin. Psixologlar tomonidan dezadaptatsiya xolatlarini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy psixologik omillar shartli

2guruhga bo‘lingan: Ijtimoiy yoki obyektiv – Shaxsiy yoki subyektiv. Dezadaptatsiya jarayonida ikkala omil ham o‘zaro bog‘langan holda namoyon bo‘ladi. Ta’lim sohasidagi dezadaptatsiya o‘quv faoliyatidagi buzilishlar, xulqiy og‘ishlar, kattalar va tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlardagi nizolar, xavotirlanish darajasining ortishi, shaxs rivojlanishidagi buzilishlarda namoyon bo‘ladi. Dezadaptatsiya markaziy nerv sistemasi funksiyalaridagi buzilishlar natijasida ham shakllanishi mumkin.

Psixologik tadqiqotlarda aniqlanishicha, bu toifadagi o‘smirlarning ma’lum qismida miya funksiyalarining ma’lum miqdorda o‘zgarishi aniqlangan. Bu holatlarga olib keluvchi asosiy faktorlar sifatida anamnezda onaning xomiladorlik va tug‘ish jarayonining og‘ir kechadi. Bunday bolalar rivojlanishida nutq funksiyalari rivojlanishining kechikishi, diqqat, xotira rivojlanishdagi og‘ishlar kuzatilgan umumiy intellektual rivojlanishda bunday bolalar meyor darajasida bo‘lishi bilan birgalikda, ta’lim jarayonida ma’lum kognitiv qiyinchiliklarga duch kelganlar.

Bunday xolatlar quyidagi sindromlarda namoyon bo‘ladi: Psixologik profilaktika, oilada salbiy tusdagi shaxslararo munosabatlarning shakllanish, konfliktlar shaxs taraqqiyotida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan har qanday og‘ishlarning yuzaga kelishiga yo‘l qo‘ymaslik, ularning oldini olishga qaratilgan psixologik tadbirlarni qamrab olgan psixologiyaning sohasidir. Oilada tarbiyalanayotgan o‘smirlar muammolari bilan shug‘ullanadigan ijtimoiy Psixologik xizmat markazlari, asosan, ular bilan diagnostik va psixokorreksion yo‘nalishlarda ish olib boradi. Voyaga yetmaganlarning xulq-atvori profilaktikasi ishida ommaviy axborot vositalari orqali tashviiqiy-ma’rifiy ishlarni olib borish muhimdir. Jamoatchilik fikri so‘rovi ma’lumotlari bo‘yicha televideniye o‘smirlar va yoshlar uchun axborot olishning afzalroq manbai hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dezadaptatsiya o‘smirlik davrida uchraydigan murakkab muammolardan biri bo‘lsa-da, to‘g‘ri ijtimoiy-psixologik yondashuv orqali uni bartaraf etish mumkin. Oila, maktab va psixologning hamkorligi bu jarayonda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Eng muhimi, o‘smir o‘zini tushunilgan va qo‘llab-quvvatlangan his qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziyev, E.G‘. Umumiy psixologiya – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.
2. Davletshin, M.G. Yosh va pedagogik psixologiya – Toshkent, 2018.
3. Muxamedov, R. Ijtimoiy psixologiya asoslari – Toshkent, 2019.
4. Karimova, V.M. Ijtimoiy psixologiya – Toshkent, 2016.
5. Nemov, R.S. Psixologiya (1–3 jild) – Moskva: Vldos, 2001.
6. Leontyev, A.N. Faoliyat, ong va shaxs – Moskva, 1975.
7. Rubinshteyn, S.L. Umumiy psixologiya asoslari – Moskva, 1989.